

Date: 29th May-2025

CHET TILI DARSLARIDA O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Guliston Shamuratova Yuldashevna

University of business and science

E-mail: guliston.shamuratova@bk.ru

Tel : +99890 3220121



Annotatsiya: Mazkur maqolada chet tili darslarini interfaol usullarda tashkil qilishga oid nazariy ma'lumotlar berilgan. Darslarning samaradorligini oshiruvchi didaktik o'yinlar va talabalarning ijodkorlik qobiliyatini oshirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shu bilan bir qatorda bir necha didaktik o'yinlar tahlil qilingan.

Аннотация: В настоящей статье изложены теоретические аспекты организации уроков иностранного языка с применением интерактивных методов. Рассматривается значимость дидактических игр в повышении эффективности учебного процесса и их роль в развитии творческих способностей обучающихся. Кроме того, проведён подробный анализ ряда дидактических игр.

Annotation: Given article presents a theoretical framework for organizing foreign language lessons through the interactive methods. The significance of didactic games in enhancing the efficiency of the educational process and their role in improving students' creativity are thoroughly examined. Furthermore, a detailed analysis of several didactic games is provided.

Kalit so'zlar: Чет тили дарсларида интерфаол усуллар, дидактик ўйинлар, ҳаракатли ўйинлар, pedagogik-psixologik nazariyalar.

Ключевые слова: Интерактивные методы на уроках иностранного языка, дидактические игры, подвижные игры, психолого-педагогические теории.

Keywords: Interactive methods in foreign language teaching, didactic games, active games, pedagogic and psychologic theories.

Kirish: Bugungi kunda mavjud bo'lgan pedagogik-psixologik nazariyalar didaktikaning asosiy negizi sifatida o'quvchilar harakatlarini qanday tashkil etish kerak, degan savolga javob izlashi lozim. Chunki o'quvchilarning bilish faoliyatları muayyan o'quv muammolarini yechishga yo'naltirilishi kerak. Buning uchun, faoliyat usullari va metodlari yig'indisidan foydalinish maqsadga muvofiqidir. Bu metodlar va usullar o'quvchilarning muayyan maqsadga erishishlariga ko'maklashishi lozim. [1] Bunday metodlar qatoriga harakatli o'yinlar bilan darslarda ishlashni misol qilib ko'rsatish mumkin. Chet tili darslarini harakatli o'yinlar orqali tashkillashtirish nafaqat darsning samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini ham kuchaytiradi. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rinn egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun chet tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir. Chet tillarni mukammal o'rganish uchun avvalo maqsad aniq

CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE, INNOVATION, AND TRANSFORMATION.

International online conference.

Date: 29th May-2025



bo‘lishi va uni o‘rganishga kuchli hohish, qiziqish bo‘lishi kerak. Til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirishda o‘qituvchining chet tili darsini metodik jihatdan to‘g‘ri va didaktikaga boy tashkillashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi bir necha yangicha ta’lim usullarini yaxshi bilishi kerak va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo‘ladi. So‘nggi yillarda chet tili mashg‘ulotlarida interfaol o‘yinlarni, rolli o‘yinlarni tadbiq etish o‘zining tabiiyligi, stresslardan holi ekanligi bilan ancha ijobiy samara bermoqda. O‘qituvchining talaba bilan samarali natijalarga erishishiga ko‘maklashuvchi, o‘rgatuvchi, o‘zaro ta’sirlarning turlicha usullari mavjud. Ulardan biri chet tillarini o‘qitishning o‘yin usuli hisoblanadi.

1. Ma’lumki, o‘yin – talabalarning bilimini mustahkamlashda va ularning so‘zlashuv nutqini faollashtirishda yetarli natija beruvchi vositadir.

2. Shuningdek, chet tili darslarida o‘rganilayotgan mavzu mazmuniga moslab qo‘llaniladigan o‘yinlar talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi, til o‘rganishga qiziqishini uyg‘otadi va albatta oshiradi. O‘qishga qiziqish esa bilimlarni puxta o‘zlashtirish garovidir.

3. Guruhlararo o‘yinlar talabalarning ijodkorlik qobiliyatini o‘stiradi, natijada chet tilidagi so‘z boyligining hajmi ortib boradi. Demak, har qanday o‘yinga tayyorgarlik davrida uning maqsadini aniq belgilash zarur[2].

O‘yin qatnashchilarini uning qoidasi bilan to‘liq tanishtirish lozim. O‘yin qoidalari og‘zaki tushuntirish bilan chegaralanib qolmay, aniq ko‘rsatmalar berish, tarqatma materiallar tarqatish ham foydali usul hisoblanadi. O‘yinni tashkil etishda muhim masalalardan biri – talabalarni aniq bir guruhlarga biriktirishdir

O‘yinni tizimli o‘rganishga urinishni birinchi bo‘lib, XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross amalga oshirdi. U o‘yinda kelajakda yashash uchun kurash sharoitlariga nisbatan instinktlarning ogohlantirishi bo‘lib o‘tadi, deb hisoblagan.

O‘yin usulidan foydalanishning o‘qitish imkoniyatlari anchadan beri yaxshi ma’lum. Chet tillarni o‘qitish uslubiyati bilan shug‘ullanuvchi ko‘pgina olimlar o‘yin usulidan foydalanishning samaraliligiga haqli ravishda e’tiborni qaratdilar.

Tadqiqot metodologiyasi: O‘qitishning o‘yin shakllaridan foydalanish o‘quv-tarbiya jarayonini yanada mazmunliroq va sifatliroq qiladi, chunki:

- o‘yin har bir talabani alohida va barcha talabalarni birgalikda faol o‘rganish faoliyatiga jalb qiladi
- musobaqalashish - o‘yining ajralmas qismi talabalar uchun jozibalidir, o‘yindan olingan huzurlanish chet tili darslarida qulay sharoit yaratadi va fanni o‘rganishga bo‘lgan istakni kuchaytiradi[3];

Darsda mashg‘ulotning o‘yin shakli talabalarni kuzatish, rag‘batlantirish vositasi sifatida qatnashuvchi o‘yin usullari va holatlari yordamida yaratiladi.

Tahlil va natijalar. O‘yin talabadagi motivasion ehtiyojlarni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarni mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini isbotlashda aniq, ishonarli dalillar bilan zarur bilimlarni o‘zlari qidirib topishga, bahs – suhbatda faol ishtirok etishga, so‘zlovchining fikrini tinglay olishga, suhbatdoshiga nisbatan hurmat saqlashga o‘rgatadi. U yoki bu rolni ijro etgan holda talaba tildagi xatoliklardan qo‘rqishni

Date: 29th May-2025



bas kila boshlaydi va bu unga holatga moslashish, ishonchli tarzda harakat qilishiga yordam beradi. Chet tili darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanishning ijobiy tomonlaridan biri ba’zi gapishtiga qiynaladigan o‘quvchilarga darsda qatnashishga yaxshi imkon yaratiladi. Ko‘pgina o‘quvchilar chet tilida xato qilishdan qo‘rqib gapirmaydilar. Harakatli o‘yinlarda ishtiroy etish orqali ular o‘qituvchi bergen vazifasini tushunib, amalda qo‘llay olish imkoniyatiga egaliklarini ko‘rsatadilar.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, o‘qitishning turli bosqichlarida o‘yinlardan foydalanish nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi, balki talabaning ruhiy rivojlanishning yangi, yanada balandroq bosqichiga o‘tishida ma’lum r o‘lni ham bajaradi. Bunday o‘yinlarning maqsadi dars jarayonini bir xillikdan uzoqlashtirishdir. Buning uchun pedagoglar ta’limda turli o‘yin usullarini qo‘llashida ularning pedagogik-psixologik mohiyatini chuqurroq anglashi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmanov F.I., Raximova I.I. Psixologicheskaya xarakteristika kompyuternoy igri, kak vida igrovoy deyatelnosti. Sbornik materialov nauchno-prakticheskoy konferensii UzGUMYA. Tashkent, 2014.
2. Akishina A.A. Igri na urokax russkogo yazika. –M.: Russkiy yazik, 1990.
3. Grätz Ronald: Vom Spielen, Leben, Lernen. In: Fremdsprache Deutsch: